

# Hujjatlar to`plami

Oliy ta'lim muassasalari abituriyentlardan har yilning 15-iyun kundan 15-iyul kunigacha turli ta'lim yo'nalishlariga hujjatlarni qabul qilishadi.

Abituriyent ta'lim muassasasi qabul komissiyasiga quyidagi hujjatlarni topshiradi:

- ta'lim yo'nalishi, o'qitish tili va shakli ko'rsatilgan holdagi ariza;
- o'rta yoki o'rta maxsus ma'lumot haqidagi hujjatning asl nusxasi;
- 086/U-shakldagi tibbiy ma'lumotnoma;
- fuqarolik pasporti nusxasi;
- 3,5×4,5 sm o'lchamdagi 6 dona fotosurat;

Bundan tashqari abituriyent qabul komissiyasiga pasport va harbiy xizmatga aloqadorligi haqidagi hujjatini shaxsan ko'rsatadi.

Xalqaro va respublika olimpiadalari, tanlovlar va musobaqa g'oliblari o'qishga tanlovsiz kirish huquqini beruvchi hujjatning asl nusxasini ham taqdim etadi.

Muddatli harbiy xizmatni o'tagan va harbiy qism tavsiyanomasiga ega bo'lgan abituriyentlar tegishli tavsiyanomani ta'lim muassasasi qabul komissiyasiga 15-iyulgacha taqdim etishlari shart aks holda undan keyin topshirilgan tavsiyanomalar qabul qilinmaydi.

Abituriyent hujjatlarining to'liqligi tekshirilgandan so'ng web kamera orqali suratga tushiriladi va hujjatlari qabul qilinadi. Suratga tushirish uchun alohida burchak yoki xonalar tashkil etiladi. Ushbu surat abituriyentlar bazasiga kiritiladi va DTMga yuboriladi. Suratga tushmagan abituriyentning hujjatlari qabul qilinmaydi.

Abiturientlar tomonidan qayd etilgan talablar bajarilganda ularning hujjatlarini qabul qilib olinadi va qabul qilinganligi to'g'risida tilxat beriladi.